Особенности педагогической деятельности и их виды	803
<i>Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.</i>	
Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности	808
<i>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</i>	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз	811
<i>Юлдашева Дилноза Бекмуродовна</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari	815
<i>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</i>	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise	818
<i>Ikramova Aziza Aminovna</i>	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati	823
<i>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</i>	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi	827
<i>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</i>	
Ko'zi o'z boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	830
<i>Qarshiboyev Asiddin</i>	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari	834
<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari	839
<i>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</i>	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора	844
<i>Азмиева Э. Э.</i>	
Maktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati	851
<i>Xoldarova F. M.</i>	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	854
<i>Gulyamova Nafisa Burikulovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli	858
<i>Rizayeva Xusniya Ubayevna</i>	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli	861
<i>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</i>	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida	865
<i>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</i>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida	868
<i>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari	871
<i>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</i>	
Oliy badiiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>	
Kasb-hunar maktablarida fizika fanini steam integratsiyasi asosida o'qitishning nazariy-didaktik asoslari	878
<i>Mamatxonov Yorkin Abduraimjanovich, Soliyeva Mubinabonu Zokirjon qizi</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida olib boriladigan pedagogik faoliyat imkoniyatlari	885
<i>Abidova Nilufar Zakirovna</i>	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar.....	888
<i>Ahmedova Lola Abdivasi qizi</i>	
Aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirishning asosiy komponentlari va samarali omillari.....	893
<i>Anvarova Dilfuza Akramjanovna</i>	
O'quv topshiriqlari orqali 6-sinf o'quvchilarining pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari.....	896
<i>Ashirboyeva Nafisa Aminboyevna</i>	
Talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini takomillashtirish va uning amaliy ahamiyati.....	900
<i>Ergasheva Maftunaxon Avazbekovna</i>	
Talabalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida reflektiv tafakkurni rivojlantirish.....	904
<i>Ergasheva Nigora Dilshodjon qizi</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	907
<i>Isabekova Dilafuz Shermirzayevna, Gazibekova Gulvaza Ergashovna</i>	
Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslari.....	913
<i>Murodov Akmal Djayliboyevich</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshdagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning estetik muomala madaniyatini tarbiyalash.....	917
<i>Po'latova Parida</i>	
Fizika fanini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining samaradorligi.....	920
<i>Saparova Gulmira Baxtiyorovna</i>	
Rus tilini o'qitishda an'anaviy va audiovizual usullarning qiyosiy tahlili.....	923
<i>Umarov Aziz Avazovich</i>	
An Analysis of The Importance of Teaching English at the Primary Level.....	927
<i>Vasila Almetova Sunnatullayevna</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash.....	931
<i>Adizova Nodira Baxtiyorovna</i>	
"Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning ilmiy-pedagogik yondashuvlari.....	936
<i>Akmaljon Xushvaqtov</i>	
Iqtidorli talabalar bilan ishlash pedagogik muammolari.....	939
<i>Delov To'liqin Erkinovich</i>	
Rinolaliya nutq nuqsonining anatomik jihatdan kelib chiqishi.....	945
<i>Kabirova Zarnigor Raxmonjon qizi</i>	
Methodology for Teaching Modal Verbs in English Lessons.....	949
<i>Kholnazarova Vazira Bozor qizi</i>	
The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency.....	953
<i>Kosimov Sunnat Ravshan ugli</i>	
Disability Terminology in Uzbek: Etymological Evolution and Future Trends.....	957
<i>Kuchkarova Xurshida</i>	
Bo'lajak muhandislarni grafik dasturlar yordamida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish (muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida).....	964
<i>Madaminov Javlonbek Zafarjonovich</i>	
Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv darsliklarning pedagogik imkoniyatlari.....	968
<i>Mirzaakbarov Dilshod Davlatboyevich</i>	
Sog'lom turmush tarzi – jismoniy madaniyati sohibi sifatida jismoniy mashqlar komplekslarini tuzish va bajarishda amal qilinadigan qoidalar.....	971
<i>Musayev Zarifjon Tursunaliyevich</i>	
Bo'lajak defektologlarning pedagogik mas'uliyatini oshirish.....	974
<i>Nodira Mirboboyeva</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish modeli.....	977
<i>Odamboyeva Mehrimon Norimon qizi</i>	
O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....	981
<i>Qurbanova O'g'iloy Axrorovna</i>	



Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari.....	985
<i>Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi</i>	
Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari	989
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i>	
Dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi.....	992
<i>Shermatova Yukut Sabirovna</i>	
Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi	995
<i>Soliyeva Diyora Bobur qizi</i>	
O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari	998
<i>Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi</i>	
Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	1001
<i>Tojibayeva Nazokatxon</i>	
Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	1005
<i>Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida.....	1008
<i>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
<i>Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi</i>	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
<i>Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
<i>Xoshimova Y. I.</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni.....	1023
<i>Xudoyqulova Aziza Anvar qizi</i>	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi.....	1026
<i>Yuldashov Sherzod Sattorovich</i>	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
<i>Жамолова Зарнигор Баходир кизи</i>	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов.....	1033
<i>Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
<i>Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni.....	1041
<i>Haydarova Namuna</i>	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners.....	1044
<i>Mohigul Nizomididinova</i>	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish.....	1049
<i>Soliyeva Maftuna Tirkash qizi</i>	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
<i>Xamrayeva Iroda Sayfullayevna</i>	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
<i>Xusanova Gulruksor To'liqin qizi</i>	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
<i>Xolikova Dilobarxon Maxsitovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
<i>Primkulova Iroda Berdimurodovna</i>	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
<i>Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna</i>	
Talabalarning ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish.....	1071
<i>Esmuratov Muzaffar Elamonovich</i>	



Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoqxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	

TALABALARDA IJTIMOYIY FAOLLIK KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AMALIY AHAMIYATI

Ergasheva Maftunaxon Avazbekovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Tarix kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasida ijtimoiy faollik ko'nikmalarini tarixiy bilimlar asosida rivojlantirish masalalari yoritilgan. Talabalarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishda ijtimoiy faollik ko'nikmalari va ularning tarkibiy qismlari tahlil qilingan. Maqolada ushbu ko'nikmalarning ahamiyati hamda ularni rivojlantirishning samarali usullari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, komponent, empatiya, kommunikatsiya va muloqot, mas'uliyat, jamiyat, talaba, liderlik va tashabbus, muvaffaqiyat, ijtimoiy ko'nikma, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy qobiliyat, madaniy rivojlanish, kasbiy va shaxsiy o'sish, tarixiy bilimlar, qadriyat, ijtimoiy muammo, tarixiy tajriba, interfaol metod, tanqidiy tahlil, interaktiv o'yinlar.

Abstract: This article analyzes the development of social activity skills among students studying in higher education institutions based on historical knowledge. It examines the role of these skills and their components in shaping students as well-rounded individuals. The article also provides detailed insights into the importance of social activity skills and presents effective methods for their development.

Key words: social activity, component, empathy, communication, responsibility, community, student, leadership and initiative, success, social skills, personal development, social abilities, cultural development, professional and personal growth, historical knowledge, values, social problem, historical experience, interactive method, critical analysis, interactive games.

Аннотация: В статье рассматривается развитие навыков социальной активности у студентов высших учебных заведений на основе исторических знаний. Проанализированы компоненты социальной активности и их роль в формировании студентов как всесторонне развитых личностей. Также представлены сведения о значении данных навыков и методах их эффективного формирования.

Ключевые слова: социальная активность, компонент, эмпатия, коммуникация, ответственность, сообщество, студент, лидерство и инициатива, успех, социальные навыки, личностное развитие, социальные способности, культурное развитие, профессионально-личностный рост, исторические знания, ценности, социальная проблема, исторический опыт, интерактивный метод, критический анализ, интерактивные игры.

KIRISH

Ijtimoiy faollik ko'nikmalari – bu jamiyatda faol ishtirok etish, ijtimoiy jarayonlarga tegishli masalalarga munosabat bildirish va jamiyatga foydali bo'lish qobiliyati. Bu ko'nikmalar shaxsning jamiyatga qanday hissa qo'shishini, o'zining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotdagi o'rni qanday anglashini, boshqa insonlar bilan qanday o'zaro aloqalar o'rnatishini belgilaydi. Talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirish o'zgaruvchan dunyo sharoitida muvaffaqiyatli va mas'uliyatli shaxs sifatida jamiyatga foyda keltiradigan kishilarni tarbiyalashga yordam beradi.

Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatdagi hayotda faol ishtirokini anglatadi. Bu ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ekologik jarayonlarga qo'shilishni, boshqalar bilan samarali muloqot qilishni va o'z fikrini erkin bildirishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy faollik ko'nikmalari faqat shaxsning o'z faoliyatiga emas, balki jamiyatni rivojlantirishga ham hissa qo'shishdir. Bu ko'nikmalar jamiyatda barqarorlikni saqlash, ijtimoiy adolatni ta'minlash va umumiy farovonlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy faollik ko'nikmalari bir qancha komponentlardan iborat:

- **Empatiya va o'zaro tushunish:** ijtimoiy faollikning asosiy jihatlaridan biri bo'lib, boshqalar va jamiyat a'zolari bilan aloqada bo'lish, ularning ehtiyojlarini tushunish va shaxsiy manfaatlarni umumiy manfaatlar bilan uyg'unlashtirishdir.



- **Kommunikatsiya va muloqot:** faol ishtirokchining muhim fazasi – bu muloqot, o'z fikrini aniq va ochiq ravishda ifodalash, boshqalar bilan samarali muloqot o'rnatish, muammolarni hal qilishda konstruktiv yondashuvlardan foydalanishdir.
- **Mas'uliyat:** jamiyatga, uning qadriyatlariga va qonunlariga hurmat bilan yondashish, shuningdek, jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarga hissa qo'shishga tayyor bo'lishdir.
- **Liderlik va tashabbus:** jamiyatdagi o'zgarishlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish, boshqalarga ilhom berish, tashabbusni qo'lga olish va muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o'ynashdir.

Talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarining rivojlanishi nafaqat jamiyat uchun foydali bo'ladi, balki shaxsning o'zini anglash, o'zini rivojlantirish va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishda ham yordam beradi.

Ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- **Shaxsiy rivojlanish:** talaba o'z fikrini aniqlik bilan ifodalash, turli fikrlarni baholash va tahlil qilish orqali o'z-o'zini anglashni oshiradi. Bu, o'z navbatida, shaxsiy o'sish va o'zgarishga olib keladi.
- **Ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirish:** talaba boshqalar bilan ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, muammolarni birgalikda hal qilish, o'zaro ishonchni oshirish kabi ko'nikmalarni egallaydi.
- **Madaniy rivojlanish:** talaba ijtimoiy faollik orqali jamiyatning madaniy qirralarini, an'analarni va qadriyatlarini anglashni chuqurlashtiradi, madaniy farqlarni tushunadi va qadrlaydi.
- **O'qituvchilar roli:** ijtimoiy faollik ko'nikmalarining o'qituvchilar tomonidan rivojlantirilishi talabaning jamiyatda o'z o'rnini topishga va professional faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirish quyidagilarni ta'minlaydi:

- **Kasbiy va shaxsiy o'sish:** ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirgan talaba o'z kasbiy faoliyatida liderlik, tashabbuskorlik va mas'uliyat kabi sifatlarni shakllantiradi.
- **Jamiyatga hissa qo'shish:** ijtimoiy faollik orqali talaba jamiyatga nisbatan mas'uliyatini anglaydi va uning taraqqiyotiga hissa qo'shishga tayyor bo'ladi.
- **Madaniy va ijtimoiy masalalarga faollik:** talabalar tarixiy bilimlar yordamida jamiyatning ijtimoiy va madaniy masalalarini tahlil qilishga va ular bo'yicha amaliy choralar ko'rishga tayyor bo'ladi.

Shu tarzda, ijtimoiy faollik ko'nikmalari talabaning shaxsiy, kasbiy va jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda bunday ko'nikmalarni rivojlantirish ularni faollikka undaydi, jamiyatga foydali hissa qo'shishga yordam beradi va o'zgaruvchan dunyo sharoitida muvaffaqiyatli shaxslarni tarbiyalaydi.

Tarix talabalarga o'tmishdagi voqealarni o'rganish orqali nafaqat tarixiy ma'lumotlarni eslab qolish, balki ularni zamonaviy hayotda qanday qo'llash va o'rganish imkonini beradi. Tarixni o'rganishning ijtimoiy faollikni shakllantirishdagi o'zni katta, chunki bu bilimlar talabalarga jamiyatning rivojlanish jarayonlari, muammolar va qadriyatlar to'g'risida chuqur tushuncha beradi.

Tarixiy voqealar va ularning jamiyatga ta'siri, o'tmishdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni tahlil qilish orqali talabalar o'z shaxsiy va jamiyatdagi o'rnini anglab, o'z faoliyatlarini rivojlantirishga yordam oladilar. Tarixiy bilimlar bu ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki:

- **Tarixdan saboq olish:** o'tmishdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni o'rganish, ularning bugungi kunda qanday ta'sir ko'rsatishini va qanday o'zgarishlarga olib kelganini tushunishga yordam beradi.
- **Qadriyatlarni anglash:** tarixiy voqealar va qadriyatlar, milliy va global miqyosdagi ijtimoiy faollikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, tarixda amalga oshirilgan siyosiy islohotlar, ijtimoiy tenglik, huquqlarni himoya qilish kabi mavzularda bilimlarga ega bo'lish talabalarda jamiyatda faol bo'lish istagini uyg'otadi.
- **Ijtimoiy muammolarni tahlil qilish:** tarixiy jarayonlarni o'rganish orqali talaba o'tmishdagi siyosiy inqirozlar, urushlar, adolatni ta'minlash uchun kurashlar kabi masalalarni tahlil qiladi. Bu jarayonlar ijtimoiy faollikni shakllantirishda talabaga jamiyatdagi muammolarni anglash imkonini beradi.
- **O'tmishdagi muvaffaqiyatlar va xatolarni o'rganish:** o'tmishdagi ijtimoiy va siyosiy muvaffaqiyatlar (masalan, mustaqillik, inson huquqlari harakatlari) va xatolar (masalan, totalitarizm, diskriminatsiya) haqida bilimlar talabalarni bugungi kunda ijtimoiy faollikka qanday yondashishni o'rgatadi.
- **Tarixiy tajribalarni amaliyotda qo'llash:** o'tmishdagi ijtimoiy tajribalar jamiyatdagi muammolarni hal qilishda amaliy bilimlarni qo'llashga yordam beradi. Tarixiy bilimlar yordamida talabalar jamiyatdagi o'zgarishlar va ijtimoiy faollikni qanday amalga oshirishni tushunadilar.

Tarixiy bilimlar asosida ijtimoiy faollikni rivojlantirishda pedagogik usullar va metodikalar muhim ahamiyatga ega. Tarixni o'rganish jarayonida talabalarni faol ishtirok etishga undash, ularning fikrini erkin ifodalashga imkon berish, guruh ishlarini tashkil etish va tarixiy voqealarni zamonaviy kontekstda tahlil qilish orqali ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Pedagogik metodlar va strategiyalar:

- **Interfaol metodlar:** talabalarga tarixiy voqealar haqida interaktiv tarzda ma'lumot berish (diskussiyalar, rolli o'yinlar, guruh loyihalar).
- **Tanqidiy tahlil:** tarixiy voqealarni zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilish va talabalarga o'z fikrlarini erkin bildirish imkoniyatini yaratish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish masalasi ko'plab olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan. X.M. Tojiboeva o'z tadqiqotida o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik tizimning samarali shakllarini ishlab chiqqan bo'lib, unda ijtimoiy faollikni tarbiyaviy jarayonlar bilan uyg'unlashtirish muhimligi ta'kidlangan. N.N. Djamilova oliy ta'lim muassasalari talabalar orasida tashabbuskorlikni rivojlantirish mexanizmlarini tahlil qilib, ularning shaxsiy faolligi va ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirishga qaratilgan metodlarni ko'rsatib bergan. Q.Q. Quronboev esa yoshlarning ijtimoiy tashkilotlarda ishtiroki orqali ma'naviy va ijtimoiy faollikni oshirishning pedagogik asoslarini aniqlab bergan.

Shuningdek, B. Sh. Shermuhammadov yoshlar orasida milliy g'oyani targ'ib qilishning ijtimoiy faollikka ta'sirini o'rgangan bo'lib, bu jarayonda madaniy qadriyatlarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Prezident Sh. M. Mirziyoevning asarlarida ham ijtimoiy faollik masalalari bevosita yoritilib, qonun ustuvorligi, inson manfaatlarini ta'minlash va fuqarolik mas'uliyati talabalarda faollikni shakllantirishning muhim omili sifatida qayd etilgan. Ushbu tadqiqotlar va manbalar ijtimoiy faollikni ta'lim jarayonida mustahkamlash uchun nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarixni o'rganishda ishlatiladigan metodologiya talabalarni ijtimoiy faollikka tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Tarixiy bilimlarni o'rgatishda an'anaviy usullardan tashqari, interaktiv metodlar, kreativ yondashuvlar va talabalarning fikrlarini ochiq tarzda ifodalashga imkon beruvchi metodlar qo'llaniladi.

- **Interaktiv o'qitish metodlari:** tarixni o'rganishning interaktiv usullari, masalan, guruh ishlarini tashkil etish, muhokama va talqin qilish orqali talabalarga o'tmishdagi voqealar haqida faqatgina ma'lumot berish emas, balki ularni o'z fikrlarini bildirishga va tarixiy voqealarni zamonaviy nuqtai nazardan baholashga imkon yaratish muhimdir.
- **Guruh ishlari:** talabalar o'rtasida guruh ishlarini tashkil etish, ular orasida tarixiy voqealarni tahlil qilish, ijtimoiy-siyosiy masalalarga yondashuvlarni muhokama qilish, tarixiy faktlarga asoslangan jamoaviy qarorlar qabul qilish orqali ijtimoiy faollikni rivojlantirishga erishish mumkin. Bu jarayon talabalarni jamiyatdagi ijtimoiy masalalarni hal qilishda birgalikda faol ishtirok etishga undaydi.
- **Muhokama va talqin qilish:** tarixiy voqealarni muhokama qilish, turli nuqtai nazarlar asosida talqin qilish talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ijtimoiy faollikni oshiradi. Talabalar tarixiy voqealar va ularning hozirgi kunda qanday ta'sir ko'rsatganini baholash orqali o'z fikrlarini erkin ifodalashni o'rganadilar.
- **Ijtimoiy mas'uliyat:** tarixni o'rganish talabalarga jamiyatdagi o'zgarishlarga nisbatan mas'uliyatni oshirishga yordam beradi. Tarixiy voqealarni tahlil qilishda talaba nafaqat o'tmishdagi ijtimoiy va siyosiy holatlarni anglabgina qolmay, balki jamiyatda bugungi kunda ham faol ishtirok etish zarurligini tushunadi.
- **Siyosiy mas'uliyat:** tarixni o'rganish talabalarga siyosiy mas'uliyatni oshirishda ham yordam beradi. Siyosiy o'zgarishlar va ijtimoiy inqirozlarni tahlil qilish orqali talabalar o'z jamiyatlarida siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish va ularning rivojlanishiga hissa qo'shish zarurligini anglaydilar.
- **Global mas'uliyat:** tarixiy bilimlar talabalarni nafaqat o'z mamlakatidagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga nisbatan mas'uliyatli yondashishga, balki dunyo miqyosida sodir bo'layotgan voqealarga ham e'tibor qarataishga undaydi. Bu, o'z navbatida, talabalarni global muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishga, ijtimoiy adolatni ta'minlashga va global mas'uliyatni his qilishga o'rgatadi.



Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonida keng qo'llanilishi, ya'ni onlayn ta'lim resurslari va platformalardan foydalanish talabalarga tarixiy bilimlarni yanada samarali o'rganishga imkon bermoqda. Bu platformalar talabalarga onlayn kurslar, vebinarlar, virtual kutubxonalar va o'quv materiallariga kirish imkoniyatlarini yaratadi. Virtual ekskursiyalar talabalarni tarixiy joylarga bevosita virtual tarzda borish imkonini beradi. Virtual sayohatlar esa talabalarga tarixiy joylarga tashrif buyurish, turli hududlardagi muzeylarni, tarixiy voqealarni ko'zdan kechirish va tarixiy ahamiyatga ega joylarni o'rganish imkoniyatini taqdim etadi. Bu texnologiyalar asosida talabalar tarixiy bilimlarni yanada chuqurroq tushunishga erishadilar va ularning ijtimoiy faolliklari rivojlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vositalar hisoblanadi. Onlayn resurslar, virtual simulyatsiyalar, gamifikatsiya va diskussiyalar orqali talabalarga tarixiy bilimlarni o'rganishning yangi, innovatsion usullari taqdim etiladi. Bu metodlar talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga va tarixiy voqealarni zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilishga yordam beradi. Natijada talabalarda jamiyatdagi o'zgarishlarga nisbatan faollik, mas'uliyat va jamiyatga hissa qo'shishga tayyorlik shakllanadi.

Milliy va xorijiy tajribalar tarixiy bilimlar asosida ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quvchilarni faollikka undashning samarali metodlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratadilar. Milliy tajriba bilan birga xorijiy tajribalar talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarni o'rganishga imkon yaratadi.

O'zbekistonda tarixiy bilimlar asosida ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishda milliy ta'lim tizimida bir qator muvaffaqiyatli metodlar mavjud. O'zbekistonning ta'lim tizimi talabalarga tarixiy bilimlarni nafaqat yodlash, balki ularni ijtimoiy jarayonlarga qanday qo'llashni o'rgatish maqsadida ko'plab interaktiv metodlar va amaliyotlarni qo'llamoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, tarixiy bilimlar yordamida talabalarda mas'uliyat, liderlik va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu ko'nikmalar talabalarga o'zlarini nafaqat o'quv muhitida, balki jamiyatda ham muvaffaqiyatli shaxslar sifatida ko'rsatishga yordam beradi. Pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalar talabalarning tarixiy bilimlarga asoslangan fikrlash ko'nikmalarini oshirishda katta rol o'ynaydi. Talabalarni tarixiy bilimlarni o'rganish jarayonida qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar, masalan, onlayn platformalar, virtual simulyatsiyalar, guruh ishlari va interfaol mashg'ulotlar ularni yanada samarali o'rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tojiboeva X.M. O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi. Diss. 2018-y.
2. Djamilova N.N. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari. Avtoref. dis. ped. DSc. – T., 2019-y. – 14-b.
3. Quronboev Q.Q. Talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (Yoshlar tashkilotlari misolida). Ped.f.n. diss. – T.: O'zPFITI, 2000-y.
4. Shermuhammadov B.Sh. Yoshlar orasida milliy g'oya targ'iboti samaradorligini oshirish. Dis. ped. fan. dok. – T., 2016-y. – 37-b.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017-y. – 30-b.
6. <https://cyberleninka.ru>
7. <https://ziyo.com> kutubxonasi
8. <https://scientists.uz>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.